




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISTE‘MOL NARXLARI INDEKSI

2025-yil fevral

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma iste'mol narxlari indeksi (INI)

FEVRAL



INI iste'mol sektori-dagi inflyatsion jarayon-larning asosiy indikatori sifatida alohida o'rin egalab, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashda hal qiluvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.


Iste'mol narxlari o'zgarishini kuzatish uchun tovarlar va xizmatlar to'plami 420 turdagi tovarlar va 90 turdagi xizmatlarni qamrab oladi.

Har oyda 10 mingdan ortiq savdo nuqtalari va xizmat ko'rsatish obyektlari kuzatiladi, 170 mingdan ortiq narxlar, shu jumladan muqobil axborot manbalaridan olingan ma'lumotlar qayd etiladi.




YIG'MA INI, % da

o'tgan oyga nisbatan
yillar



o'tgan yilning dekabriga nisbatan




2025- yilning fevralida oylik yig'ma INI **100,5 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-fevralida mazkur ko'rsatkich **101,3 %** ga yetdi.

Yillik nisbatda (2024- yilning fevraliga nisbatan) yig'ma INI **110,1 %** darajasida qayd etildi.

o'tgan yilning fevraliga nisbatan



*) soliq organlari ma'lumotlar bazasidan olingan skaner ma'lumotlar va idoraviy manbalar ma'lumotlari.

Oziq-ovqat
mahsulotlari

170 turdagi tovarlar

Nooziq-ovqat
mahsulotlar

250 turdagi tovarlar

Xizmatlar

90 turdagi xizmatlar

TOVARLAR BO‘YICHA INI, % da

2025- yilning fevralida tovarlar bo‘yicha INI oy davomida **100,5%** ni, 2024- yilning dekabriga nisbatan – **101,1%** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatda ushbu ko‘rsatkich **105,0%** darajasida shakllandi.



XIZMATLAR BO‘YICHA INI, % da

Xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI 2025- yilning fevralida **100,8%** ni tashkil etdi.

2024- yilning dekabriga nisbatan ko‘rsatkich **101,9%** ga, 2024- yilning fevraliga nisbatan esa **127,1%** ga yetdi.



Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro‘yxatga olish har oyning 10- sanasidan 20- sanasigacha amalga oshiriladi. Ma‘lumotlarni yig‘ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig‘ida narxlarni ro‘yxatga olish har bir tovar va xizmat bo‘yicha bir marta amalga oshiriladi va qo‘shni davrlar uchun ro‘yxatga olish oralig‘i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIning hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta‘siri chiqarib tashlanadi.

FEVRAL

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha qisqa muddatli INI 2025- yilning fevralida **100,6 %** ni tashkil etdi. Nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha mazkur ko'rsatkich **100,3 %** ni, xizmatlar bo'yicha **100,8 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-fevralida oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI **101,4 %**, nooziq-ovqat mahsulotlarda **100,6 %** va xizmatlarda **101,9 %** darajasida qayd etildi.


Joriy yilning fevral oyidagi yillik INI oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha **102,9 %**, nooziq-ovqat mahsulotlarda **107,7 %** va xizmatlarda **127,1 %** darajasida qayd etildi.

o'tgan oyga nisbatan


o'tgan yilning dekabriga nisbatan

o'tgan yilning fevraliga nisbatan


OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % da



NOOZIQ-OVQAT MAHSULOTLAR INI, % da



XIZMATLAR INI, % da



Meva-sabzavot mahsulotlari narx tebranishlarini hisobga olmaganda oylik yig'ma INI **100,3 %** ga yetib, ushbu mahsulotlar narx o'zgarishlarini hisobga olgan holda hisob-kitob qilingan qisqa muddatli INI ko'rsatkichidan **0,2** foiz bandga past bo'ldi.


2025- yilning fevralidagi yillik nisbatdagi yig'ma INIga meva-sabzavot mahsulotlari narx o'zgarishlari tutib turuvchi omil bo'lib xizmat qildi. Shunday qilib, mevalar va sabzavotlar narx tebranishlarini hisobga olgan holda hisob-kitob qilingan mazkur ko'rsatkich ularni hisobga olmagan holda hisob-kitob qilingan ko'rsatkichdan **2,1** foiz bandga past bo'ldi.

Yig'ma INI, % da

Oziq-ovqat mahsulotlari INI, % da



o'tgan oyga nisbatan

o'tgan oyga nisbatan





o'tgan yilning dekabriga nisbatan

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning fevraliga nisbatan

o'tgan yilning fevraliga nisbatan



meva-sabzavot mahsulotlari narx o'zgarishlarini hisobga olganda


meva-sabzavot mahsulotlari narx o'zgarishlarini hisobga olmaganda

ASOSIY GURUHLARDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING QISQA MUDDATLI YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI


Ma'lumot uchun

Ta'sir (f.d.*) va uning ulushi (%). 2025- yil fevral


o'tgan oyga nisbatan




2024-yilning dekabriga nisbatan



2024-yilning fevraliga nisbatan



Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlari



Xizmatlar

Izoh: o'tgan oy va 2024-yilning dekabriga nisbatan ko'rsatkichlarda raqamlar yuzlikka, yillik ko'rsatkich uchun o'nlikka yaxlitlangan.

2025- yil fevralidagi qisqa muddatli hamda 2025- yil yanvar-fevralidagi INI o'sish sur'ati tuzilmasida asosiy ulush (mos ravishda **48,1%** va **49,6%**) oziq-ovqat mahsulotlari narx o'zgarishlari hissasiga to'g'ri keldi.

Joriy yil fevralidagi yillik INI tuzilmasida esa ushbu guruh ta'sir ulushi uchta guruh orasida eng kichigi (**13,9%**) bo'ldi.

*) foiz darajasi

INIning shakllantirish quyidagi ikkita ma'lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

1) salmoq vaznlarini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladigan aholining iste'mol xarajatlari tarkibi (uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari) to'g'risidagi ma'lumotlar;

2) hududlar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida iste'mol narxlari (ya'ni, tovarlar va xizmatlarning aholi tomonidan sotib olinadigan narxi) o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlar. O'rtacha narxlar darajasiga assortiment va hududiy siljishlar kabi bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. INIning hisoblashda, faqatgina inflyatsion omillarni aniqlash maqsadida ularning ta'siri hisobga olinmaydi.

Har bir tovarning yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga ta'siri va ulushi tovarning narx o'zgarishlari hamda uning iste'mol xarajatlari tuzilmasidagi salmoq vaznini hisobga olgan holda aniqlanadi.

MAQSADLAR BO‘YICHA INDIVIDUAL ISTE‘MOL TASNIFLAGICHI – 2018 (O‘ZR MIIT – 2018) BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI


2025- yilning fevralida bo‘limlar kesimida qisqa muddatli INI diapazoni **100,0 %** dan (“Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar” (IX bo‘lim) **101,6 %** gacha (“Transport” (VII bo‘lim) chegarasida bo‘ldi.

Yig‘ma INI, % da fevral o‘tgan oyga nisbatan




Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar

yillar




Sprtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari

yillar




Kiyimlar va poyabzallar

yillar



Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari

yillar




Uy-ro‘zg‘or buyumlari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish

yillar



Sog‘liqni saqlash

yillar




fevral oyida o'tgan oyga nisbatan




Transport

yillar




Axborot va aloqa

yillar




Dam olish, sport va madaniyat

yillar




Ta'lim sohasidagi xizmatlar

yillar




Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari

yillar




Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar

yillar



Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar

yillar




“Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari” (II), “Kiyimlar va poyabzallar” (III), “Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari” (IV) va “Ta'lim sohasidagi xizmatlar” (X) bo'limlarida qisqa muddatli INI 2024- yil fevraldagi ko'rsatkichdan past bo'ldi.

FEVRAL OYIDAGI INI, % da


2025- yilning fevralida 2024- yilning dekabriga nisbatan INI chegaralari bo'limlar kesimida **100,3%** dan ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar" (XII) bo'lim) **103,6%** gacha ("Ta'lim sohaidagi xizmatlar" (X) bo'lim) oraliqda, yillik INI **101,1%** dan ("Axborot va aloqa" (VIII) bo'lim) **136,5%** gacha ("Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari" (IV) bo'lim) oraliqda bo'ldi.




SPIRTLI ICHIMLIKLAR VA TAMAKI MAHSULOTLARI




OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR




KIYIM VA POYABZAL




TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG'I TURLARI




UY-RO'ZG'OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA XIZMAT KO'RSATISH



SOG'LIQNI SAQLASH



TRANSPORT









○ o'tgan yilning dekabriga nisbatan

○ o'tgan yilning fevraliga nisbatan

FEVRAL OYIDAGI INI, % da

Davomi




○ o'tgan yilning dekabriga nisbatan

○ o'tgan yilning fevraliga nisbatan


I BO‘LIM. “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR”

2025- YIL FEVRAL OYIDAGI INI, % da


Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



Go'sht mahsulotlari




Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari



Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




Yog'lar va moylar



Mevalar va yong'oqlar




Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar




Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari



Spirtsiz ichimliklar



2025- yilning fevralida bo'limlar kesimida qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **97,6 %** dan (sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum) **105,4 %** gacha (sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar) oraliqda joylashdi. Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxumdan boshqa 100 % lik darajadan past INI donli ekinlar va yorma mahsulotlarida (**97,9 %**) qayd etildi.

2024- yilning dekabriga nisbatan INI ko'rsatkichi **94,2 %** dan (sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum) **111,7 %** gacha (sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar) oraliqda bo'ldi. 100 % lik darajadan past INI bu yerda ham donli ekinlar va yorma mahsulotlarida (**97,9 %**) qayd etildi.

Joriy yil fevralida I bo'limda yillik INI eng yuqori ko'rsatkichi **115,9 %** ga (yog'lar va moylar) yetgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich **81,2 %** ni (mevalar va yong'oqlar) tashkil etdi.

o o'tgan oyga nisbatan

o o'tgan yilning dekabriga nisbatan

o o'tgan yilning fevraliga nisbatan

2025- YIL FEVRALDAGI INI, % da



Guruch va guruch oqshog'i

o'tgan oyga nisbatan

96,1

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

95,1

o'tgan yilning fevraliga nisbatan

89,6



Bug'doy uni

o'tgan oyga nisbatan

95,0

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

94,9

o'tgan yilning fevraliga nisbatan

92,4



Mol go'shti (suyakli)

o'tgan oyga nisbatan

102,8

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

103,9

o'tgan yilning fevraliga nisbatan

118,5



Qo'y go'shti

o'tgan oyga nisbatan

102,4

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

103,6

o'tgan yilning fevraliga nisbatan

119,4



Tovuq go'shti (son qismidan tashqari)

o'tgan oyga nisbatan

99,9

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

99,9

к февралю предыдущего года

99,2



Tovuq son qismi

o'tgan oyga nisbatan

100,2

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

100,1

o'tgan yilning fevraliga nisbatan

98,8



Xom, yangi sog'ilgan sut

o'tgan oyga nisbatan

100,4

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

100,7

o'tgan yilning fevraliga nisbatan

106,0



Tuxum

o'tgan oyga nisbatan

88,0

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

75,4

o'tgan yilning fevraliga nisbatan

69,6



Kungaboqar yog'i

o'tgan oyga nisbatan

100,4

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

102,6

o'tgan yilning fevraliga nisbatan

119,9



Shakar

o'tgan oyga nisbatan

99,0

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

98,2

o'tgan yilning fevraliga nisbatan


95,6

2025- yilning fevralida banan, apelsin, mandarin, kartoshka kabi meva-sabzavot mahsulotlari narxlarida pasayish qayd etildi.

Shu bilan bir qatorda, limon, karam, bodring, pomidor, bulg'ori qalampiri, baqlajon, qovoq kabi mevalar va sabzavotlar sezilarli darajada qimmatlashdi. Boshqa meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining o'sishi 3 % lik chegaradan oshmadi.

Meva-sabzavot mahsulotlari bo'yicha 2024- yilning dekabriga nisbatan INI diapazoni **88,0 %** (apelsin) – **166,0 %** (baqlajon) chegarasida bo'ldi. Yillik INI bo'yicha ushbu chegara **51,0 %** (uzum) – **146,8 %** ni (kartoshka) tashkil etdi.


2025-YIL FEVRALIDA INI, % da



2025- yilning fevralida “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo'limi tovarlari orasida sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar (+0,28 f.d.) va go'sht mahsulotlari (+0,20 f.d.) narx o'zgarishlari qisqa muddatli INI o'sish sur'atiga yuqori ta'sir ko'rsatdi.

Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum hamda donli ekinlar va yorma mahsulotlari narxlarining pasayishi tutib turuvchi ta'sir (jami -0,29 f.d.) ko'rsatdi.


2025- YIL FEVRALIDA TA'SIR TUZILMASI, f.d.



2025- yil fevralida 2024- yilning dekabriga nisbatan yig'ma INI o'sish sur'atiga I bo'lim tovarlari orasida meva-sabzavot mahsulotlari (jami ta'siri **+0,69** f.d.) va go'sht mahsulotlari (**+0,28** f.d.) narx o'zgarishlari boshqalarga nisbatan yuqoriroq ta'sir etdi. Donli ekinlar va yorma mahsulotlari, sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum narxlarining pasayishi tutib turuvchi ta'sir (jami **-0,46** f.d.) ko'rsatdi.

2025- yilning fevralida yillik nisbatdagi yig'ma INI o'sish sur'atiga go'sht va yog'-moy mahsulotlari hamda sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar narx o'zgarishlarining ta'siri yuqoriroq (jami **+2,12** f.d.) bo'ldi. "Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum" va "Mevalar va yong'oqlar" guruhlaridagi narx o'zgarishlari tutib turuvchi ta'sir ko'rsatib, buning hisobiga 2024- yilning fevraliga nisbatan yig'ma ko'rsatkich **1,10** f.d. past bo'ldi.


2025- YIL FEVRALIDA TA'SIR TUZILMASI, f.d.




II BO‘LIM. “SPIRTLII ICHIMLIKLAR, TAMAKI MAHSULOTLARI”

2025- YIL FEVRALIDA INI, % da

SPIRTLII ICHIMLIKLAR






TAMAKI MAHSULOTLARI



2025- yilning fevralida “Spirтли ichimliklar va tamaki mahsulotlari” (II) bo‘limi bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **100,2%** dan (sigaretlar) **101,3 %** gacha (vino) oraliqda bo‘ldi.


2025- yilning fevralida 2024- yilning dekabriga nisbatan spirтли ichimliklar va tamaki mahsulotlari INI **100,7%** dan (konyak, sigaret) **102,7%** gacha (vino) diapazonda joylashdi.

Yillik nisbatdagi INI **111,8%** dan (sigaret) **108,4%** gacha (konyak) tebrandi.


-  o'tgan oyga nisbatan
-  o'tgan yilning dekabriga nisbatan
-  o'tgan yilning fevraliga nisbatan




Vino




Aroq




Konyak




Pivo



Sigaret




Boshqa tamaki mahsulotlari




III BO‘LIM. “KIYIM VA POYABZAL”

2025- YIL FEVRALIDA INI, % da

KIYIM



POYABZAL




2025- yil fevralida “Kiyimlar va poyabzallar” (III) bo‘limi bo‘yicha qisqa muddatli INI diapazoni **99,7%** dan (bolalar tagliklari) **101,6%** gacha (kimyoviy tozalash xizmatlari) oraliqda joylashdi.

III bo‘lim bo‘yicha 2024- yilning dekabriga nisbatan INI eng past ko‘rsatkichi **99,8%** ni (bolalar uchun bosonojka, sandal va sandaletlar), eng yuqori ko‘rsatkichi **102,5%** ni (kiyimlarni ijaraga berish) tashkil etdi.


Yillik INI bo‘yicha oraliq **102,9%** dan (erkaklar uchun demisezon kurtkalar) **113,7%** gachani (kimyoviy tozalash xizmatlari) tashkil etdi.

- o'tgan oyga nisbatan
- o'tgan yilning dekabriga nisbatan
- o'tgan yilning fevraliga nisbatan


Kiyim tikish uchun materiallar




Ustki kiyimlar




Boshqa kiyim predmetlari va furnitura




Kiyimlarni tozalash, ta'mirlash, tikish va ijaraga berish



Botinkalar, tufllilar va boshqa poyabzallar



Poyabzallarni tozalash, ta'mirlash va ijaraga berish




IV BO‘LIM. TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI

2025- YIL FEVRALIDA INI, % da

TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI



TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH, TA‘MIRLASH VA QO‘RIQLASH



SUV TA‘MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG‘LIQ BOSHQA XIZMATLAR



ELEKTR, GAZ VA YONILG‘INING BOSHQA TURLARI



Joriy yilning fevralida Toshkent viloyatida issiq suv ta‘minoti va isitish xizmatlari uchun to‘lov qiymatida o‘shish qayd etildi.

Navoiy viloyatida maishiy chiqindilarni olib ketish uchun to‘lov qiymati oshirildi.

Boshqa asosiy turdagi kommunal xizmatlar tariflari 2025- yilning yanvaridagi darajada saqlanib qoldi.

Turar joylarga xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash va qo‘riqlash xizmatlari bo‘yicha qisqa muddatli INI **100,5 %** ni tashkil etdi.


IV bo‘limning boshqa kuzatiladigan tovarlari va xizmatlari narx va tariflari o‘tgan oy darajasida saqlanib qoldi.

- o'tgan oyga nisbatan
- o'tgan yilning dekabriga nisbatan
- o'tgan yilning fevraliga nisbatan


Turar joylarga xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash




Markaziy isitish




Issiq suv ta‘minoti



Tarmoq gaz



Elektr energiyasi



Chiqindilarni to‘plash




V BO'LIM. "UY-RO'ZG'OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA KUNDALIK XIZMAT KO'RSATISH"


2025- yilning fevralida "Uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish" (V) bo'limi bo'yicha qisqa muddatli INI **99,5 %** dan (elektr batareykalar) **101,0 %** gacha (belkurak, ketmon, panshax, grabl) oraliqda bo'ldi. 2025-yil yanvar-fevralidagi INI **99,4 %** (elektr batareykalar) – **106,6 %** (zararkundalarni yo'qotish va dezinfeksiyalash) oralig'ida bo'lgan bo'lsa, yillik INI **101,6 %** (xo'jalik sovuni) – **114,1 %** (gilam va gilam mahsulotlarini yuvish va tozalash bo'yicha xizmatlar) chegarasida joylashdi.

2025- YIL FEVRALIDA INI, % da


MEBEL VA UY-RO'ZG'OR ASBOBLARI




UY XO'JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI




MAISHIY USKUNALAR




SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO'ZG'OR ANJOMLARI




KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG'DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR




UY XO'JALIGINI YURITISH BILAN BOG'LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR




Maishiy mebel




Oshxonalar belyosi va vannaxonalar belyosi




Yirik oshxona priborlari




Kichik oshxona priborlari



Oshxona anjomlari va uy-ro'zg'or asboblari



Maishiy yuvish va tozalash vositalari



o'tgan oyga nisbatan


o'tgan yilning dekabriga nisbatan

o'tgan yilning fevraliga nisbatan


VI BO' LIM. "SOG' LIQNI SAQLASH"

2025- YIL FEVRALIDA INI, % da


DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI




AMBULATORIYADA DAVOLASH BO'YICHA XIZMATLAR



STATSIONARDA DAVOLASH BO'YICHA XIZMATLAR




SOG' LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR




"Sog'liqni saqlash" (VI) bo'limiga kiruvchi tovarlar bo'yicha 2025- yilning fevral oyidagi qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **100,5 %** dan (davolovchi massaj xizmatlari) **101,2 %** gacha (tibbiy niqoblar va qo'lqoplar) oraliqda joylashdi.

2025- yilning yanvar-fevralidagi INI **99,7 %** (shprints) **102,8 %** gacha (tibbiy laboratoriyalar xizmatlari) diapazonga kirdi.


III bo'lim tovar va xizmatlari bo'yicha 2025- yilning fevralida yillik nisbatdagi INI quyi chegarasi **107,7 %** (ko'rish uchun yordamchi vositalar), yuqori chegarasi esa **127,9 %** (antibiotiklar) darajasida qayd etildi.




Dori vositalari




Profilaktik himoya vositalari




Shaxsiy foydalanish uchun tibbiy uskunalar




Stomatologiya xizmatlari



Tibbiy laboratoriyalar xizmatlari



Diagnostika vizualizatsiyasi bo'yicha xizmatlar




VII BO‘LIM. “TRANSPORT”

Benzin va metan narxlarining barqarorligi fonida 2025- yilning fevralida propan narxlarida o‘shish (**104,3 %**) qayd etildi.


Fevral oyidan temir yo‘l va avia chipatalar narxlari oshdi. Ichki parvozlar o‘rtacha **1,6** barobarga, xalqaro parvozlar **1,9 %** ga qimmatlashdi. Uzoq masofaga qatnaydigan poyezdlarda qatnash **7,7 %** ga qimmatlashdi. Haydovchilikka tayyorlash kurslari uchun to‘lov oy davomida respublika bo‘yicha o‘rtacha **7,5 %** ga qimmatlashdi.

2025- YIL FEVRALIDA INI, % da


TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH




SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH




YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI




TOVARLARNI TASHISH BO‘YICHA XIZMATLAR




Benzin




Propan




Metan




Temir yo‘l yo‘lovchi transporti



Avtomobil yo‘lovchi transporti



Havo yo‘lovchi transporti



o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning fevraliga nisbatan


VIII BO‘LIM. “AXBOROT VA ALOQA”

2025- YIL FEVRALIDA INI, % da

AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI



AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR




Kuzatiladigan axborot-kommunikatsiya uskunalari turlarining narxlari 2025- yilning fevralida nisbatan barqarorlikni saqlab qoldi. Narxlarning past darajadagi tebranishi kompyuter, noutbuk va planshetlar, periferik uskunarlar (**100,2%**), televizorlar (**99,7%**) va ovoz va tasvirlarni qabul qilsih, yozib olish va aks ettirish uchun boshqa uskunarlar (**99,9%**) narxlarida qayd etildi.


Mazkur sohaga taalluqli xizmatlar orasida simli Internet uchun abonent to'lovi (o'rtacha **1,8%** ga) hamda kompleks telekommunikatsiya xizmatlari va axborot-kommunikatsiya uskunarlarini ta'mirlash (**0,7%**) xizmatlari narxlarida o'sish qayd etildi.

- o'tgan oyga nisbatan
- o'tgan yilning dekabriga nisbatan
- o'tgan yilning fevraliga nisbatan


Mobil telefon uskunasi




Kompyuter, noutbuk, planshet




Periferik uskunarlar




Ovoz va tasvirlarni qabul qilish, yozib olish, aks ettirish uchun uskunarlar



Simli Internet uchun abonent to'lovi



Uskunalarni ta'mirlash



IX BO‘LIM. “DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT”


2025- yilning fevralida IX bo‘lim bo‘yicha qisqa muddatli INI diapazoni **99,4%** (A4 formatidagi qog‘oz) – **103,3%** (teatrlar xizmatlari) oralig‘ida bo‘ldi.

2025- yilning yanvar-fevralidagi INI yuqori chegarasi ushbu bo‘limda **115,3%** ga (gazetalar va davriy nashrlar), quyi chegarasi **99,5%** ga (A4 formatidagi qog‘oz) yetdi.


Yillik nisbatdagi INI **89,8%** dan (A4 formatidagi qog‘oz) – **120,4%** gacha (istirahat bog‘lari xizmatlari) diapazonda tebrandi.

2025- YIL FEVRALIDA INI, % da

BOG‘DORCHILIK MAHSULOTLARI, UY HAYVONLARI




MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH




DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI




DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR




O‘yinlar, o‘yinchoqlar va hobbi




Sport uchun uskunalar



Muzeylar xizmatlari




Teatrlar xizmatlari



Kanselyariya tovarlari va rassomchilik uchun materiallar



Turistik sayohat



o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan


o‘tgan yilning fevraliga nisbatan

X BO'LIM. "TA'LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR"


Joriy yilning fevrali davomida ta'lim sohasida narxlarning sezilarsiz darajada oshishi faqatgina xususiy sektorda qayd etildi. Shunday qilib, xususiy bolalar bog'chalari xizmatlari **0,9 %** ga, repetitorlar xizmatlari **0,5 %** ga, o'quv kurslari xizmatlari **0,1%** ga qimmatlashdi.

X bo'lim bo'yicha 2024- yilning dekabriga nisbatan INI diapazoni **100,0 %** (davlat OTMda o'qitish) – **121,0 %** ni (davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) xizmatlari), 2024- yilning fevraliga nisbatan **101,3 %** (nodavlat OTMda o'qitish) – **145,2%** ni (xususiy MTT xizmatlari) tashkil etdi.


2025- YIL FEVRALIDA INI, % da




Davlat MTT xizmatlari




Xususiy MTT xizmatlari




Davlat oliy ta'lim muassasida o'qitish




Nodavlat oliy ta'lim muassasida o'qitish



Repetitorlar xizmatlari



O'quv kurslarida o'qitish




XI BO‘LIM. “RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI”

2025- YIL FEVRALIDA INI, % da

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR



MEHMONXONALAR XIZMATLARI



Umumiy ovqatlanish sohasida 2025- yilning fevralida qisqa muddatli INI **100,5-100,7 %** chegarasida tebrandi.


Mehmonxonalar xizmatlari joriy yilning fevrali davomida narx barqarorligini saqlab qoldi. Dam olish markazlari xizmatlari ushbu davrda **0,3 %** ga qimmatlashdi.

XI bo‘limda 2024- yilning dekabriga nisbatan INI **100,9 %** dan (otellar, mehmonxonalar va shunga o‘xshash xizmatlar) **111,8 %** gacha oraliqda joylashdi. Mazkur xizmatlarda shuningdek, 2024- yilning fevraliga nisbatan eng past va eng yuqori INI ko‘rsatkichlari (mos ravishda **107,5 %** va **113,6 %**) qayd etildi.


- o'tgan oyga nisbatan
- o'tgan yilning dekabriga nisbatan
- o'tgan yilning fevraliga nisbatan




Kafe




Oshxonalar, kafeteriyalar va gazaxonalar



Otellar, mehmonxona va shunga o‘xshash xizmatlar




Dam olish markazlari




XII BO‘LIM. “SUG‘URTALASH VA MOLIYAVIY XIZMATLAR”

2025- YIL FEVRALIDA INI, % da

SUG‘URTA






MOLIYAVIY XIZMATLAR



Moliyaviy xizmatlar orasida 2025- yilning fevralida narxlarning pasayishi bank muassasalari xizmatlarida qayd etilib, bu holat ayrim kreditlar bo'yicha stavkalarining tebranishlari bilan bog'liq.


Banklar orqali pul o'tkazish xizmatlari bo'yicha qisqa muddatli INI 2025- yilning fevralida **100,3 %** ni tashkil etdi.

XII bo'limning boshqa kuzatiladigan xizmat turlari bo'yicha tariflarda joriy yilning fevralida o'zgarishlar qayd etilmadi.

-  o'tgan oyga nisbatan
-  o'tgan yilning dekabriga nisbatan
-  o'tgan yilning fevraliga nisbatan



Bank muassasalari xizmatlari




Pul o'tkazmalari uchun to'lov



Elektron to'lov tizimlari orqali pul vositalarini o'tkazish uchun to'lov




Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar xizmatlari




XIII BO‘LIM. “MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR”

2025- YIL FEVRALIDA INI, % da

MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR



SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA BUYUMLAR



BOSHQA XIZMATLAR




2025- yilning fevralida XIII bo‘limga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI ko‘rsatkichi **99,8%** dan (soch bo‘yoqlari) **102,9%** gacha (tish chiyotkalari) chegarada bo‘ldi.

100 % dan past INI oy davomida soqol olish uchun uskunalar, lezviya, qo‘l va yuz uchun krem, bolalar tagliklari, maktab sumkalari, ryukzaklari (**99,9%**) kabi tovarlarda kuzatildi. Narxlarning 2 % dan yuqori o‘shish sur‘ati hammomlar va dushxonalar (**102,5%**) xizmatlarida qayd etildi.


2025- yilning fevralida 2024- yilning dekabriga nisbatan INI ushbu bo‘limda **100,0%-105,8%** chegarasida, 2024- yilning fevraliga nisbatan **103,7%** dan **132,6%** gacha diapazonda tebrandi.

o'tgan oyga nisbatan
 o'tgan yilning dekabriga nisbatan
 o'tgan yilning fevraliga nisbatan


Shaxsiy foydalanish uchun elektr asboblari




Shaxsiy foydalanish uchun boshqa priborlar va tovarlar




Sartaroshxonalar xizmatlari




Soatlarni ta'mirlash



Hujjatlardan nusxa ko'chirish xizmatlari



Diniy xizmatlar



O‘ZR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O‘ZGARISHNING YIG‘MA INI O‘SISHI (PASAYISHI)GA TA‘SIRI


Yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta‘sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o‘zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Narx indeksi salmog‘i – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o‘lcham bo‘lib, ular yordamida:

- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig‘indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;
- avvaldan o‘zaro solishtirib bo‘lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;
- qo‘llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlantiriladi va o‘rganilayotgan hodisa bo‘yicha narx o‘zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.

2025- yil fevralidagi oylik yig‘ma INI o‘zgarishiga ta‘siri, f.d.

+0,54



2025- yilning fevral oyidagi qisqa muddatli yig‘ma ko‘rsatkich o‘shish sur‘atiga oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narx o‘zgarishlari yuqori ta‘sir ko‘rsatib, ularning hissasiga umumiy ta‘sir darajasining **46,3 %** i to‘g‘ri keldi.

“Transport” bo‘limidagi narx o‘zgarishlari oy davomidagi yig‘ma ko‘rsatkichni **0,15 f.d.** oshirdi (umumiy ta‘sir darajasining **27,7 %**).

Kiyimlar va poyabzal, sog‘liqni saqlash sohasidagi tovarlar va xizmatlar hamda maishiy tovarlar va xizmatlar va turli tovarlar va xizmatlar narxlarining o‘shishi hisobiga qisqa muddatli yig‘ma INI qo‘shimcha **0,09 f.d.** yuqoriladi.

Boshqa bo‘limlardagi narx o‘zgarishlari ta‘siri past darajada bo‘ldi.

O‘ZR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O‘ZGARISHNING YIG‘MA INI O‘SISHI (PASAYISHI)GA TA’SIRI

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari o‘zgarishlarining 2025- yil fevralidagi 2024- yil dekabriga nisbatan yig‘ma INI o‘shir sur‘atiga ta’siri **0,61 f.d.** yoki kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar umumiy ta’sirining **48,0 %** iga yetdi. Boshqa bo‘limlar ta’siri past darajada bo‘ldi.

2025- yil fevralidagi yillik yig‘ma INI tuzilmasida **43 %** dan yuqori ulush “Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” (IV) bo‘limi hissasiga to‘g‘ri keldi.



METAMA'LUMOTLAR VA TUSHUNTIRISHLAR

- INIn hisoblash xalqaro sifatni boshqarish modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0)ga asosan ishlab chiqilgan milliy modellarga muvofiq amalga oshiriladi.
- Narxlar kuzatuvini amalga oshirishda va INIn hisoblashda asos bo'ladigan tovarlar va xizmatlarning iste'mol to'plami, aholi tomonidan eng ko'p iste'mol qilinadigan tovarlar va pullik xizmatlar guruhlarini O'zbekiston Respublikasining barcha hududlari uchun yagona bo'lgan representativ tanlovini ifodalaydi. Ushbu to'plam Statistika agentligi tomonidan Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi (MIIT-2018), shuningdek, uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari tarkibi ma'lumotlari asosida shakllantiriladi va ma'lum vaqt davomida o'zgarishsiz qoladi (bir yildan kam bo'lmagan muddatda).
- To'plamga yangi tovarlar va xizmatlar kiritilishining mezonlari, ularning aholi umumiy iste'mol xarajatlaridagi ulushi hisoblanadi. Yangi turdagi tovarlar va xizmatlar, ularning aholi umumiy iste'mol xarajatlaridagi ulushi 0,1 foizdan kam bo'lmagan hollarda iste'mol narxlari kuzatuvini ro'yxatiga kiritiladi.
- Narxlar bo'yicha ma'lumotlar Nukus va Toshkent shaharlarida, viloyat markazlarida hamda tanlanma asosda mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, geografik joylashuvi hamda iste'mol bozorining tovarlar va xizmatlar bilan yetarlicha ta'minlanganlik darajasini aks ettirishini hisobga olgan holda tanlab olingan shaharlar va tumanlar markazlarida yig'iladi. Vakillikni (representativlikni) ta'minlash uchun hududlar kesimida savdo aylanmasi va uning tarkibi, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, aholi soni, shahar va tumanlar orasidagi masofa, viloyat markazidan uzoqligi va boshqa tegishli ma'lumotlar tahlil qilinadi.
- Tovarlar va xizmatlar narxlari va tariflari kuzatuvini tanlanma asosda ko'chmas savdo va pullik xizmat ko'rsatish sohasi obyektlarida (kiyim-kechak, aralash va oziq-ovqat bozorlari hamda do'konlarida, gipermarket, supermarket, minimarketlarda va h.k.), shuningdek, ko'chma savdo (palatka, kiosk va h.k.) joylarida ham amalga oshiriladi. Obyektlar tanlovi representativlik shartlari asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, hisob-kitoblarda muqobil axborot manbalaridan (skaner va idoraviy ma'lumotlar) olingan ma'lumotlardan foydalaniladi.
- Narxlarni ro'yxatga olish grafigi ma'lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirish uchun zarur bo'ladigan vaqtni hisobga olgan holda shakllantirilgan bo'lib, kengaytirilgan ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi tomonidan tavsiya etilgan va ma'lumotlarni e'lon qilish kalendarida belgilangan muddatlarga asoslangan.
- Ta'kidlash joizki, INI faqatgina narxlar o'zgarishi to'g'risidagi ko'rsatkich bo'lib, u aholining joriy iste'mol tuzilmasidagi o'zgarishlarni hisobga olmaganligi sababli, turmush qiymati ko'rsatkichi hisoblanmaydi.
- INIn shakllantirishda inflyatsion omillarga bog'liq bo'lmagan qisqa muddatli narxlar oshishi hisobga olinmaydi. Masalan, noqulay ob-havo sharoitida taksi xizmatlari narxlarining bir kunlik keskin oshishi va keyinchalik pasayishi hamda bozorda yuzaga kelgan talab va taklifning anomal tebranishlari bilan bog'liq qisqa muddatli narx oshishlari bunga misol bo'la oladi. Bu inflyatsion jarayonlarni baholash tahlil qilinayotgan davrdagi narx o'zgarishlarining umumiy tendensiyasini qamrab olishi lozimligi bilan bog'liq.
- Agar, narx o'zgarishlari narxlarni ro'yxatga olish bo'yicha tasdiqlangan muddatdan (o'ying 20- sanasidan) keyin sodir bo'lgan bo'lsa, u holda bu o'zgarish keyingi oyda aks etadi.
- INI bo'yicha inflyatsiya — mamlakat bo'yicha o'rtacha narx o'zgarishlarini umumlashtiruvchi ko'rsatkich. Ayrim tovarlar va xizmatlar qiymati juda kuchli o'zgarishi mumkin, biroq, ushbu xaridlarning savatdagi ulushi kichik bo'lsa, inflyatsiyaga bu past darajada ta'sir qiladi.
- Xususiy (shaxsiy) inflyatsiya — bu alohida uy xo'jaligining iste'mol savatidagi tovarlar narxlari umumiy darajasining o'sishi. Xususiy inflyatsiyani tahlil qilishning zaruriyati shundan iboratki, shaxsiy iste'mol savati statistika organlari tomonidan foydalaniladigan o'rtachalashtirilgan iste'mol savatidan farq qilishi mumkin.